

O'ZBEKISTON

TIL VA MADANIYAT

UZBEKISTAN

LANGUAGE & CULTURE

ISSN 2181-922X

2021 Vol. 3

**www.navoiy-uni.uz
www.uzlc.navoiy-uni.uz**

ISSN 2181-922X

O‘ZBEKISTON

TIL VA MADANIYAT

UZBEKISTAN

LANGUAGE AND CULTURE

2021 Vol. 3

**www.navoiy-uni.uz
www.uzlc.navoiy-uni.uz**

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Bosh muharrir: Shuhrat Sirojiddinov
Bosh muharrir o'rinbosarlari: Zaynobiddin Abdirashidov
Qosimboy Ma'murov
Mas'ul kotib: Ozoda Tojiboyeva

Tahrir kengashi

Ahmadali Asqarov, Abdulaziz Mansur, Akmal Saidov, Akmal Nur, Adham Ashirov, Nizomiddin Mahmudov, Hamidulla Dadaboyev, Samixon Ashirboyev, Bahodir Karimov, Aftondil Erkinov, Baxtiyor Mengliyev, Uzoq Jo'raqulov, Sulton Normamatov, Murtazo Sayidumarov, G'aybulla Boboyorov, Nozliya Normurodova, Abdi Mamatov, Nodir Jo'raqo'ziyev, Anvar Sayfullayev.

Tahrir hay'ati

Isa Habibbeyli (Ozarbayjon)	Maria Sabtelni (Kanada)
Frederik Bressand (Fransiya)	Timur Kocaoğlu (AQSH)
Ingeborg Baldauf (Germaniya)	Almaz Ülvi (Ozarbayjon)
Mark Toutant (Fransiya)	Tanju Seyhan (Turkiya)
Rochelle Almeida (AQSH)	Xisao Komatsu (Yaponiya)
Akrom Habibullayev (AQSH)	Emek Üşenmez (Turkiya)
Valeriy S. Xan (O'zbekiston)	Abdulvahap Kara (Turkiya)
Eunkyoung Oh (Janubiy Koreya)	Alizoda Saidumar (Tojikiston)
Oqilxon Ibrohimov (O'zbekiston)	Dilorom Ashurova (O'zbekiston)
Shodmon Vohidov (Tojikiston)	Darya Jigulskaya (Rossiya)

“O'zbekiston: til va madaniyat” jurnali – lingvistika, tarix, adabiyot, tarjimashunoslik, san'at, etnografiya, falsafa, antropologiya va ijtimoiy tadqiqotlarni o'rganish kabi sohalarni qamrab olgan akademik jurnal.

Jurnal bir yilda to'rt marta chop etiladi.

Jurnalning maqsadi – ko'rsatilgan sohalarga oid dolzarb mavzulardagi bahs-munozaraga undaydigan, yangi, innovatsion g'oyalarga boy, o'z konsepsiyasiga ega bo'lgan tadqiqotlarni nashr etishdir.

Ingliz, rus va o'zbek tillaridagi, shuningdek, boshqa turkiy tillarda yozilgan maqolalar qabul qilinadi. Iqtisodiy tahlillar hamda siyosatga oid maqolalar e'lon qilinmaydi.

Jurnalda kitoblarga yozilgan taqrizlar, adabiyotlar sharhi, konferensiyalar hisobotlari va tadqiqot loyihalari natijalari ham e'lon qilinadi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

O'zbekiston, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103.

Email: uzlangcult@gmail.com
Website: www.uzlc.navoiy-uni.uz

Alisher Navo'i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature

Editor-in-Chief: Shuhrat Sirojiddinov
Deputy Editors in Chief: Zaynabiddin Abdirashidov
Kasimbay Mamurov
Executive secretary: Ozoda Tajibaeva

Editorial board

Ahmadali Asqarov, Abdulaziz Mansur, Akmal Saidov, Akmal Nur, Adham Ashirov, Nizomiddin Mahmudov, Hamidulla Dadaboev, Samixon Ashirboev, Bahodir Karimov, Aftondil Erkinov, Bakhtiyor Mengliev, Uzoq Juraqulov, Sulton Normamatov, Murtazo Sayidumarov, Gaybulla Babayarov, Nozliya Normurodova, Abdi Mamatov, Nodir Jurakuziev, Anvar Sayfullaev.

Editorial Committee

Isa Habibbeyli (Azerbaijan)	Maria Subtelny (Canada)
Frederique Bressand (France)	Timur Kozhaoglu (USA)
Ingeborg Baldauf (Germany)	Almaz Ulvi (Azerbaijan)
Marc Toutant (France)	Tanju Seyhan (Turkey)
Rochelle Almeida (USA)	Hisao Komatsu (Japan)
Akram Habibullaev (USA)	Emek Üşenmez (Turkey)
Valeriy S. Khan (Uzbekistan)	Abdulahap Kara (Turkey)
Eunkyung Oh (South Korea)	Alizoda Saidumar (Tajikistan)
Oqilkhon Ibrohimov (Uzbekistan)	Dilorom Ashurova (Uzbekistan)
Shodmon Vohidov (Tajikistan)	Daria Zhigulskaya (Russia)

“Uzbekistan: Language and Culture” is an academic journal that publishes works in the field of linguistics, history, literature, translation studies, arts, ethnography, philosophy, anthropology and social studies.

The journal is published four times a year.

The purpose of the journal is to publish the results of the latest research that are rich in new, innovative ideas and has its own concept, which stimulates debate on topical issues in these areas.

The language of articles can be English, Russian and Uzbek. Other Turkic languages are also welcome. We do not publish economic analyses or political articles.

In addition to research articles, the journal announces book and literary work reviews, conference reports and research project results.

The authors' ideas may differ from those of the editors'.

Alisher Navo'i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature.

103, Yusuf Khos Hojib, Yakkasaray, Tashkent, Uzbekistan.

Email: uzlangcult@gmail.com
Website: www.uzlc.navoiy-uni.uz

MUNDARIJA

Lingvistika

Nergis Biray, Süveyda Şahin

Özbekçede Kullanılan Türkçe Kökenli Hastalık Terimleri (Baş Bölgesi).....6

Adabiyotshunoslik. Tarjimashunoslik

Bahodir Karimov

Herman Vamberi – mumtoz adabiyot tadqiqotchisi.....17

Zaynabidin Abdirashidov

Abdurauf Fitrat va Buxoroda Jadidchilik.....30

Sharif Yoqubov

Besutun bitiklari Alisher Navoiy talqinida.....54

Tarix. Manbashunoslik

Shamsiddin Kamoliddin

Islom renessansida Markaziy Osiyo turkiylarining roli.....67

San'at

Oqilxon Ibrohimov

Temuriylar renessansida musiqa san'ati.....91

Fatih Gür

Türk kültüründe renkler102

CONTENT

Linguistics

Nergis Biray, Suveyda Shahin

Disease Terms of Turkish Origin used in Uzbek (Head Region).....6

Literature. Translation studies

Bahodir Karimov

Herman Vamberi is a researcher of classical literature.....17

Zaynabidin Abdirashidov

Abdurauf Fitrat and Jadidism in Bukhara.....30

Sharif Yokubov

Besutun's works as interpreted by Alisher Navo'i.....54

History. Source studies

Shamsiddin Kamoliddin

The role of the Turks of Central Asia in the "Islamic Renaissance"67

Art

Oqilkhon Ibrohimov

Musical art of the Timurid Renaissance.....91

Fatih Gur

Colors in Turkish culture.....102

ADABIYOTSHUNOSLIK. TARJIMASHUNOSLIK
LITERATURE. TRANSLATION STUDIES

Herman Vamberi – mumtoz adabiyot tadqiqotchisi

Bahodir Karimov¹

Abstrakt

Mojar olimi Herman Vamberini (1832-1913) dunyo ilmiy-adabiy jamoatchiligi mashhur filolog olim, sharqshunos, sayyoh va adib sifatida taniydi. Uning asarlari turkiyshunos, sharqshunos, tilshunos hamda tarjimashunos olimlar e'tiborini o'ziga jalb etib keladi. Aslida Vengriyada tug'ilib, Yevropaning turli ilmiy tashkilotlariga a'zo bo'lgan H.Vamberining hayot yo'li, ilmiy faoliyati juda qiziq. 1857-1860-yillarda Istanbulda yashab turk tilini puxta o'rgandi. Darvesh qiyofasida Turkistonga sayohat qilgan payti (1863-64) Buxoro, Samarqand, Xeva, Qo'ng'iro't kabi shaharlarda bo'ladi. Keyinchalik sayyoh ko'rgan kechirganlarini "O'rta Osiyoga sayohat" (1865) degan kitobida bayon qiladi. Herman Vamberi bu asarida Turkistonning tarixi, geografik muhiti, madaniyati, san'ati, tili va adabiyoti to'g'risida ma'lumotlar beradi. Bevosita o'zi tanishib suhbatlashgan ayrim tarixiy shaxs va adiblarni eslab o'tadi.

Mazkur maqolada o'zbek adabiyotini o'rganish va xorijda tarjima etilib, targ'ib qilinishiga o'z hissasini qo'shgan nemis olimi Herman Vamberining ijodiy faoliyati haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: *tarix, geografik muhit, san'at, tarjima, maqol, doston.*

Kirish

Herman Vamberi (1832-1913) filolog olim, sharqshunos, sayyoh va adib sifatida Yevropa va Sharq olamida mashhur. Vengriyada tug'ilib, Yevropaning turli ilmiy tashkilotlariga a'zo bo'lgan H.Vamberining hayot yo'li, ilmiy faoliyati qiziqarli kechgan. 1857-1860-yil-

¹Karimov Bahodir Nurmetovich — filologiya fanlari doktori, professor, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

E-pochta: karimovbahodir@navoiy-uni.uz; bahodirkarim66@gmail.com

ORCID ID: 0000-0002-9906-5183

Iqtibos uchun: Karimov, B.N. 2021. "Herman Vamberi – mumtoz adabiyot tadqiqotchisi". *O'zbekiston: til va madaniyat* 3: 17–29.

larda Istanbulda yashab turk tilini puxta o'rgandi. Darvesh qiyofasida Turkistonning (1863-64) Buxoro, Samarqand, Xeva, Qo'ng'iro't kabi shaharlarda bo'ladi. Keyinchalik sayyoh ko'rgan kechirganlarini "O'rta Osiyoga sayohat" (1865) degan kitobida bayon qiladi. Herman Vamberi bu asarida Turkistonning tarixi, geografik muhiti, madaniyati, san'ati, tili va adabiyoti to'g'risida ma'lumotlar beradi.

"U Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilik" dostonini "Uyg'ur tili obidaları va Qutadg'u bilik" nomi bilan 1870-yili Insburkda va 1885-yili Venada "Xorazmlik shahzoda Muhammad Solihning 76 bobdan iborat o'zbekcha qahramonlik eposi "Shayboniynoma" degan nomda Muhammad Solih asari asl matnini va nemischa tarjimasini nashr ettiradi" [Хўжаев 1984]. Ilmiy xizmatlari evaziga Vengriya FA muxbir a'zosi bo'ladi. H.Vamberining "Buxoro yoxud Movarounnahr tarixi" risolasi o'zbek tiliga tarjima qilingan. Bundan tashqari olim "turkiyzabon xalqlarning mashhur va yetakchi shoiri" Alisher Navoiy, "Boburnoma"dek betakror memuar egasi Zahiriddin Muhammad Bobur, Amiriy, Munis, Maxtumquli kabi adabiy siymolar to'g'risida ham maxsus maqolalari va ba'zi fikrlar yozgan.

Herman Vamberining Markaziy Osiyo xalqlari madaniyati va adabiyoti, turkiy va o'zbek adiblari ijodiga oid qarashlari bugunga qadar adabiyotshunoslikda tugal tasavvur beradigan holda o'rganilmadi. Darvoqe, H.Vamberining murakkab shaxsiyati, sayohatda, Turkiston adabiyoti va madaniyatini o'rganishdan maqsadi, asil maslagi to'g'risida ham turlicha fikrlar bor. Bu haqda bir qancha maqolalar yozildi [Исматуллаев 1993, 149-162; Kemal Öke 1983; Yilmaz 2004; Шафранская 2015].

Alohida ta'kidlash kerakki, H.Vamberi Markaziy Osiyoga sayohati davomida sharq xalqlari, xususan, o'zbek millati adabiy merosi va xalq og'zaki ijodi hamda xalq kitoblariga doir qimmatli manbalarni o'zi bilan birga Yevropaga olib ketadi va shu manbalar ustida ilmiy tadqiqotlar olib boradi. Shu bilan birga "Chig'atoy tili saboqlari" (1867) degan maxsus kitob yozadi, bir qancha manbalarni o'zbek tilidan nemis tiliga tarjima qiladi. Bu kitob to'g'risida, chet eldagi o'zbek adabiyoti yoki adabiy aloqalari bilan shug'ullangan o'zbek olimlarining maqolalarida eslab o'tilgan, albatta [Исматуллаев 1993, 159; Жуманиёзов 1993; Элтазаров].

Herman Vamberining "Chig'atoy tili saboqlari" kitobining umumiy hajmi 358 bet. Kitob 1) "Chig'atoy tiliga doir mulohazalari" (1-40-betlar), 2) "Xrestomatiya" (41-193-betlar,) hamda 3) "Lug'at" (197-358-betlar) deb nomlangan katta uchta qismdan tarkib topgan. Birinchi qismda tilshunoslik masalalari muhokama qilinsa, uchinchi

qismlar o'zbekcha-nemischa so'zlardan iborat lug'at, albatta.

Kitobning ikkinchi qismi, ya'ni salkam o'n bosma taboqlik maxsus adabiy majmua – "Xrestomatiya" turkiy xalqlar adabiyoti, xususan, o'zbek adabiyotini targ'ib va tashviq qilishda muhim manba sanaladi. "Xrestomatiya" uchun yozilgan maxsus "Kirish"da quyidagi muhim fikrlarni o'qish mumkin: "Navoiy qismini istisno qilganda ushbu "Xrestomatiya"da jamlangan manbalarni men O'rta Osiyodan keltirilgan chig'atoycha qo'lyozmalardan olganman. Xato qilmasam, ularni Yevropada "unika" (lotincha "unikal" so'zidan olingan bo'lib, "edinstvenniy", "yagona", "bebaho" ma'nolarini anglatadi – B.K.) deb hisoblashadi... Kitob mazmuniga keladigan bo'lsak, men sayohat kunlari xoslar adabiyoti namunalariga emas, balki ommaviy asarlarini to'plashga harakat qildim. Bunda men muvaffaqiyatga erishdim. Bundagi matnlar baxshilar tomonidan kuylangan, tarjima qilingan asarlardir. Aslida mana shu asarlar bizga odamlarning fikrlash tarzini, g'oyalarini, sharqiy turklarning til xususiyatlarini ko'rsatadi...

Boshida berilgan maqollar asosan bevosita turmushdan olingan bo'lib, ularning ko'pchiligi bugungi kunda ham usmonli-lar orasida qo'llanib kelayotganini ta'kidlash shart bo'lmasa kerak. Men ilova etgan tarjimalarda har doim kitobning adabiy maqsadini nazarda tutib, ko'proq filologik jihatlariga e'tibor berishga harakat qildim. Albatta, bu niyatni faqat oddiy xalq ijodidan olingan namunalar vositasida amalga oshirish mumkin edi. Garchand o'z asosiy maqsadimdan bir oz chetga chiqqan bo'lsam ham tasavvur aniqli-gi uchun Navoiyning sharq she'riyatidagi bebaho asarlarini taqdim etishni ham lozim ko'rdim" [Vambery 1867, 43-44]. Bu fikrlar kitobi uchun ochqich vazifasini o'tashi, o'quvchiga yo'llanma berishi tabiiy.

"Xrestomatiya"ning har bir bo'limi va undagi manbalar rim raqamlari bilan quyidagi tartibda ketma-ket beriladi:

I. "Bir necha o'zbek naqllar bayonida turur" [Vambery 1867, 45-58]. Bunda 112ta o'zbek maqoli arab-o'zbek yozuvida, lotin im-losi hamda olmon tiliga tarjimalari berilgan. H.Vamberi tarjima qilingan o'zbek maqollarining originalga mosligi, mazmunning to'la aks etgan-etmagani jihatidan kuzatish maqsadga muvofiqdir.

Birinchidan, *maqollar asliyatda qanday bo'lsa, xuddi shu tarzda – mazmuni tarjima tiliga to'la ko'chib o'tgan*. Bunda tarjimon maqol uchun maxsus izohlar berishga zarurat sezmaydi.

Ikkinchidan, *tarjimon maqolning asl matnini teran anglatish maqsadida maxsus izohlar qo'shadi*. Tabiiyki, tarjimon qo'shgan o'sha maxsus qo'shimcha – izoh va tushuntirishlari maqollarning mazmun-mohiyatini boshqa tilda aniq ifodalashga xizmat qiladi.

Uchinchidan, *kuzatishimizcha, taassufki, maqollar ba'zan xato anglangan, nomunosib tarjima qilingan va, hatto, maqolga noo'rin izoh berilgan bir-ikki o'rinlar ham uchradi.* Olmon tiliga tarjima qilingan bu maqollarda Xorazm, Toshhovuz, Qo'ng'iro't o'zbeklari tili, ya'ni o'g'iz shevasiga xos unsurlari ko'p uchraydi. H.Vamberi olmon tiliga tarjima qilgan maqollardagi bunday o'ziga xosliklarni ikki asosga ko'ra tabiiy qabul qilish o'rinli bo'ladi. Maqollarni ko'proq o'g'uz shevasiga mansub odamlari orasidan yozib olgan. Vamberi so'zboshida: "Boshida berilgan maqollar asosan bevosita turmushdan olingan bo'lib, ularning ko'pchiligi bugungi kunda ham usmonlilar orasida qo'llanib kelayotganini ta'kidlash shart bo'lmasa kerak", deb yozadi [Vambery 1867, 43]. Vamberining hamrohi, hajga borish niyatida unga ergashib yo'lga chiqqan madrasa tolibi Mulla Is'hoq qo'ng'iro'tlik edi [Элтазаров]. Maqollarni tarjima qilayotganida Vamberi yonidagi o'sha "tirik lug'at"dan unumli foydalangan bo'lishi ehtimoldan uzoq emas.

II. "Xrestomatiya" tarkibida kelgan ikkinchi bir manba xalq ijodining namunasi bo'lgan "Burq devona" deb nomlangan bo'lib, bu asar xalq og'zaki ijodi namunasi sanaladi. Hajmi 134 bayt. Umum-mohiyati ibratli diniy tushunchalar bilan yo'g'irilgan.

III. "Me'rojnoma degan kitobdan oling'on". Nasriy yo'sinda yozilgan bu manba olti qismdan tarkib topgan.

IV. "Said Vaqqos" – she'riy yo'l bilan yozilgan adabiy manba turkman va o'zbek adabiyoti namoyandasi sanaladigan Nurmuhhammad Andalib asaridir. 116 bayt.

V. "Ahmad Yusuf kitobidan oling'on qit'alar turur". "Xrestomatiya" tarkibidagi eng katta manbalardan biri shu xalq dostonidan olingan parchadir.

VI. "Xo'ja Ahmad Yassaviy" qismida hikmatlaridan namunalar berilgan. Statistikaga ko'ra H.Vamberi Xo'ja Ahmad Yassaviy hazratlarining jami 140 misradan iborat hikmatlarini olmon tiliga tarjima qiladi.

VII. "Koshg'ar turkiysidan uch xat turur". Nasriy yo'lda yozilgan uchta xatni sharqiy Turkiston tiliga xos xususiyatlarni ko'rsatish niyatida asliyat va tarjimasi bilan birga beradi.

VIII. "Baxshi kitobidan oling'on varsaqilar turur". Vamberi bu o'rinda o'zbek va qardosh turkiy xalqlarning adiblari ijodiga murojaat qiladi.

So'fi Olloyor, Ravnaq, Mashrab, Shaydoiy, Fuzuliy, Nasimiy kabi shoirlarning she'rlaridan namunalar tarjima qiladi.

IX. "Zarqum shoh" – xalq ijodi namunasi bo'lgan ushbu

masnaviy 105 baytdan iborat. Ibratli hikoyat.

X. “Zuhra va Tohir” – turkiy xalqlar ogʻzaki ijodining nodir namunasi boʻlgan bu dostonidan 224 misra tarjima etiladi.

XI. “Tabiblik kitobining bir fiqrasi durur” – Vamberi bu manbani ham “chigʻatoy tili”ga xos ilmiy-adabiy uslub namunasi uchun taqdim etadi.

XII. “Xrestomatiya”da hazrat Alisher Navoiyga tegishli boʻlim alohida “Navoiy” degan sarlavha bilan ajratib berilgan.

Unda dastlab “Mahbubul qulub”ning boshlanishi qismidan parcha keltiriladi. Vamberi olgan parcha asarning bugun tabdil nusxalaridan bir oz farq qiladi. Soʻngra Alisher Navoiy uchta gʻazali tarjimasi nasriy yoʻlda beriladi. U oʻz “Xrestomatiya”sining “Farhod va Shirin”dan olingʻon bir qitʻa turur” sahifasida dostonning 14-faslining barcha – 75 baytini asliyat va olmon tiliga nasriy tarjimasi bilan taqdim etadi. Shu yoʻsinda Herman Vamberi Alisher Navoiy nomi va uning asarlaridan nemis tilidan ayrim tarjima namunalarini 1867-yili Yevropaning markaziga olib kirgan edi.

1867-yil. Alisher Navoiy ijodidan namunalar nemis tilida

Hazrat Alisher Navoiy maqom-martabasi benihoya ulugʻ. Ijodi, shon-shuhrati, tafakkur tabiati milliy chegaralardan oshib, maʼrifatli dunyo ahlining shuuriga yetib bordi. Navoiy jahon adabiyotidagi soʻz sultonlari yonidan allaqachon joy oldi. Buni har kim biladi, tasdiqlaydi. Baʼzan Navoiyning dunyo boʻylab safari, oʻlmas soʻzlarining sayohati xususida fikr yuritilganda dalillarga zarurat seziladi. Dalilsiz fikr – quruq gap. Oʻjar dalil har qanday taxmin va varsaqilar yoʻlini toʻsadi. Dalilli fikr tufayli til botirlashadi.

Gohida xorijdagi zabardast olimlar, turli toifa tadqiqotchi va tarjimonlar – Alisher Navoiyning ijodi bilan oshno tutinganlar nomi sidirgʻasiga ulgurji sanaladi. Bu sanoqda bir-ikki marta Herman Vamberiga (1832-1913) duch keldim. Aslida, Rashid afandi nomi bilan tanilgan sharqshunos va sayyoh bu mojar olimi faoliyatiga baʼzan “josus” sifati ham qoʻshiladi [Исмагуллаев 1993]. Inson taqdiri murakkab, yuz yillar naridagi H.Vamberining umr yoʻli, barcha amali borasida tugal tasavvurga ega emasmiz. Ammo uning 1867-yili Germaniyaning Leypsig shahrida bosilgan “Chigʻatoy tili saboqlari” kitobini varaqlay turib, Alisher Navoiy asarlarining Yevropaga tarqalishi, xususan, ayrim asarlarining nemis tiliga oʻgirilishi masalasida tarjimashunoslar bu shaxsni ham yodga olishlari zarur, deb oʻyladim. Chunki oʻsha kitobda Navoiy zikr etiladi.

Kitobning umumiy hajmi 358 bet; uch qism. Birinchi qismida

“Chig‘atoy tiliga doir mulohazalar”, uchinchi qismida muallif tomondan tuzilgan yuz betdan ortiq “Lug‘at” bor. Kitobning biz qiziqqan ikkinchi “Xrestomatiya” qismi ham yuz betdan ko‘p. Bunda o‘zbek xalq ijodi namunalari, xususan, 112 ta o‘zbek maqoli arab-o‘zbek yozuvida, yonida nemis tiliga tarjimalari berilgan [Карим 2018]. O‘zbek mumtoz adabiyoti, shuningdek, Fuzuliy, Nasimiy, Nurmhammad Andalib kabi turkiy xalqlar shoirlari ijodidan namunalar asliyatini arabiy yozuvida va yonida tarjimasi bilan taqdim etilgan.

“Chig‘atoy tili saboqlari” kitobi tarkibida kelgan “Xrestomatiya”da Herman Vamberi Hazratga tegishli bo‘limni “Navoiy” sarlavhasi bilan alohida ajratib beradi.

Unda dastlab “Mahbubul qulub”ning boshlanish qismidan parcha keltiriladi. Vamberi olgan parcha asarning bugun biz o‘qiyotgan nusxalaridan bir oz farq qiladi. Keyin Navoiyning:

“Ey ko‘ngil kelkim ikov bo‘lub nigore ko‘zlali,

Sarv qadde istabon saymin uzore ko‘zlali”,

matlasi bilan boshlanadigan yetti baytli g‘azali to‘la taqdim etiladi.

Vamberi tarjima qilgan ikkinchi g‘azal:

“Ey, hamd o‘lub mahol fasohat bila sanga,

Andoqkim, qurbi taqvoyu toat bila sanga”,

matlasi bilan boshlanadi. Sakkiz bayt. Aslida Alisher Navoiyning bu g‘azali to‘qqiz baytdan iborat. Vamberi nusxasida bir bayt tushib qolgan. Vamberi tarjima qilgan yana bir g‘azal barchaga ma‘lum-u mashhur:

“Yordin ayru ko‘ngul mulkedurur sultoni yo‘q,

Mulkkim sultoni yo‘q, jismedurkim, joni yo‘q”,

matlasi bilan boshlanadigan voqeaband g‘azali bo‘lib, Vamberi nusxasida bu g‘azalning:

“Do‘zaxekim ravzayi rizvondin o‘lg‘ay noumid,

Bir xumoredurki, anda mastlig‘ imkoni yo‘q”,

bayt tushib qolgani kuzatildi. Demak, tushib qolgan baytlar tarjima ham qilinmagan. Tarjimon g‘azallarni nemis tiliga nasriy yo‘lda o‘girgan. Biroq Rashid afandining “navoiyxon”ligi shu bilan tugamaydi. U “Xrestomatiya”ning “Farhod va Shirin”dan oling‘on bir qit‘a turur” sahifasida dostonning “Farhodning shabob gulshanidakim...” deb boshlangan 14-faslining barcha – 75 baytini asliyati va olmon tiliga nasriy tarjimasi bilan taqdim etadi.

“Muhandiskim bu qasr obod qildi,

Bu yanglig' tarhini bunyod qildi.

Ki chun xoqong'a ul kom o'ldi hosil,

Tarab bazmida orom o'ldi hosil..."

Shunday boshlangan she'riy matn hozir biz o'qiyotgan nusxadan deyarli farq qilmaydi. G'azallari va "Mahbubul qulub" asaridan olingan parchaga nisbatan doston parchasining matniy sifati yaxshi.

Bu manbalarning nemis tiliga tarjimasi, tabiiyki, maxsus matniy qiyoslar va alohida izlanishlarni talab etadi.

Xullas, Herman Vamberi Alisher Navoiy nomi va uning asarlaridan nemis tilidan ayrim tarjima namunalarini 1867-yili Yevropaning markaziga olib kirgan edi.

Navoiydan keyingi davr adabiyoti

H. Vamberi "Chig'atoy tili saboqlari" kitobi tarkibida keltirilgan "Xrestomatiya" orqali o'zbek adabiyotining yozma va og'zaki namunalari dunyoga tarqaldi. Olmon tiliga tarjima qilingani bu manbalar H.Vamberidan keyingi sharqshunoslar murojaat qiladigan muhim manbalardan biri bo'lib qoldi. Bu manbalar ilm-fanimiz, tarjimashunoslik, folklorshunoslik, umuman, o'zbek adabiyotining olmon tiliga tarjimasi tarixi bilan shug'ullanadigan barcha mutaxassislar uchun bugun ham kerak. Yuqorida ketma-ket ma'lumotlar berilgan barcha asarlarni asliyat va olmon tiliga tarjimalari bilan birga bor holicha ilm ahliga yetkazish kelajakdagi muhim vazifalardan biri jumlasiga kiradi.

Yana bir diqqatga loyiq tomoni shundaki, 1892-yili Venada nashr qilingan "Yaqin Sharq xabarnomasi" jurnalining 6-sonida Herman Vamberining o'zbek adiblari haqida "Markaziy Osiyoning ikki zamonaviy shoiri - Munis va Amiriy" (Zwei moderne centralasiatische Dichter, Munis und Emir) nomli maqolasi bosiladi. Olim ikki shoirni tavsiflashdan oldin maqolasida yana bir bor Alisher Navoiyni turkiy tilda ijod etgan eng iste'dodli adib sifatida tilga oladi; uning zamonasidagi adabiy muhitga to'xtaladi. Navoiyning ta'sirida bo'lgan forsiy va turkiygo'y shoirlarga Hiloliy bilan Ahliylarni misol qilib keltiradi. Aslida "poetik qobiliyat egalari, san'at va ilm-fan muhiblari Hirotdagi temuriylar saroyida ko'p" bo'lganini Vamberi yaxshi bilgan. Shu masalada "Boburnoma"dan quyidagi mashhur latifani keltiradi: "...bir kun shatranj majlisida Alisherbek oyog'ini uzatur. Binoiyning (orqasi)ga tegar. Alisherbek mutoyaba bila derki, "ajab baloest dar Hiriy agar poy daroz mekui ba (pushti) shoir merasad" (Tarjimasi: "Ajab bir balodirki, Hirotda oyog'ingni uzatsang, shoirning orqasiga tegadi"). Binoiy derkim, "agar jam' mekuni ham ba (pushti) shoir

merasad" (Tarjimasi: "Yig'sang ham, shoirning orqasiga tegadi"). Asos-negizi haqiqatga yaqin ushbu hazilni memuarining 226-sahifasidan oladi. Bu fakt "Boburnoma"dan bir nusxa Vamberi qo'lida borligini ham bildiradi.

H.Vamberi Navoiydan keyingi adabiy hayotni tahlil etib, forsiyzabon shoirlar Abdurahmon Jomiydan ta'sirlanganiga, Muhammad Solih esa "Shayboniynoma"ni turkiy tilda yozganiga urg'u beradi. Vamberi: "Bizga Navoiy va Muhammad Solihning vafotidan boshlab to yangi davrgacha keng qamrovli va juda muhim ahamiyat kasb etgan hech qanaqa chig'atoycha (o'zbekcha) adabiy asar ma'lum emas", deb yozadi...

Vamberi XVIII asr oxiri va XIX asr boshlarini turkiy adabiyotning "yangi davri", qayta ko'tarilish zamoni hisoblaydi. Adabiy jarayonga mos: "...turkiy tilli xalqlarning milliy ilhom parisi birmuncha harakatga kela" boshlaganini kuzatadi. Shu muhitning iste'dodli shoirlaridan xorazmlik Munis va qo'qonlik Amir Umarxon sayyoh olimning nazariga tushadi.

Haqiqatan ham Amir Umarxon zamonida Qo'qon adabiy muhitidan juda ko'p shoir yetishib chiqqan edi. Fazliy Namangoniyning "Majmuai shoiron" tazkirasida ularning oltmishdan ko'prog'i zikr etiladi. Amiriyning shaxsan o'zi Qo'qon adabiy muhitiga homiylilik qildi, adabiy bahs, suhbat va mushoiralar uyushtirdi. Ayni choqda Vamberi Amiriyning shajarasi temuriylarga borib taqalishini, Norbo'tabiyning uchinchi o'g'li bo'lgani, taxtga o'tirgach, xonlik hududini kengaytirganini yozadi: "U butun O'rta Osiyoda yuksak hurmat qozondi, va hatto "Amir al muslimin" (Musulmonlar amiri) unvoniga sazovor bo'lgan, 1821-yil xalqini azobga qoldirib va yig'latib vafot etdi. Shu taniqli fotih xon bo'sh vaqtini badiiy ijodga bag'ishladi va she'rlarini jamlab "Devon" tuzdi". Bularni Vamberi Amiriyni "Devon"ining muqaddimasidan oladi. Mamlakatni adolat bilan boshqargani, xalq hayotini obod etgani, bor kuch-g'ayratini istibdod va o'zaro nizolarni bartaraf qilish uchun sarflagani va ilm-fan rivojiga, madrasalar qurilishiga jiddiy qaragani kabi bir qancha ijtimoiy faktorlarni sanaydi. Shuningdek, Amiriyni ko'ngil odami ekaniga, "u (Umarxon) huzur va halovatni ilhom parilaridan izlagani"ga urg'u berdi.

Herman Vamberi Shermuhammad Munisning tarjimai holi-ga oid ma'lumotlarni o'sha mahalda topa olmagan ekan. Uning fikricha, Munisning "Aynan Umarxon bilan bir qatorda ko'rilishi "Devoni Munis" asariga bog'liqdir. Sababi "Devoni Amir"da Umarxon va "Devoni Munis"da Munis asosan Navoiy she'riyatining prinsiplariga

sodiq qolgan holda turkiy tildagi soʻz boyligidan foydalanishgan. Faqat Umarxon qoʻqoncha va Munis xorazmcha dialektdagi soʻzlarni qoʻl-laganlar”. Bu ham Vamberining har ikki geografik hudud poetik tiliga xos individual xususiyatlarni yaxshi bilgani va ularni farqlay olganini namoyon etadi.

Albatta, Vamberi Amiriy va Munis ijodiy merosini nuqtadon adabiyotshunos sifatida poetik nuqtayi nazardan maxsus talqin etmaydi. Olim bu vazifani koʻzlagan ham emas. U adabiy davrini tavsiflaydi va har ikki shoir hamda asarlari toʻgʻrisida umumiy maʼlumotlar beradi.

Bugungi adabiy jamoatchilik, amiriyshunos va munisshunos olimlar uchun muhim bir gap shuki, Herman Vamberi oʻz maqolasi davomidan Amiriyning oʻn uchta gʻazalini, Munisning bir nechta gʻazali va yirik hajmli “Xorazm”, “Muhammad Rahimxon”, “Xeva”ga bagʻishlangan qasidalarining nemis tiliga tarjimasini eski oʻzbek tilidagi asliyati bilan birgalikda eʼlon etadi.

Vamberi erkin oʻgʻirgan bu sheʼrlar mazmuni olmon tilida qay darajada aks etgani ham, tarjimonning resepsiyasi, anglami va mahorati ham maxsus tadqiq qilinadigan ilmiy-adabiy masala sanaladi. Aslida Herman Vamberining Amiriy va Munis toʻgʻrisida muxtasar maʼlumotlar yozgani, asarlaridan namunalar tarjima qilib, Yevropaning maʼrifat ahliga yetkazgani tahsinga munosibdir. Kelajakda oʻzbek adabiyoti, deylik, Amiriy va Munis kabi mumtoz adiblar asarlarini dunyoga tanitishga kirishadigan mutaxassislar bu soha debochasida turgan Vamberining ilmiy va amaliy xizmatlarini qadriga yetadi, albatta.

Herman Vamberi turkman shoir sheʼrlarining nemis tiliga tarjimasiga oid faktni: 1879-yili Vamberi Leypsigda “Zeitschrift der deutschen Morgenhandischen Gezellschaft” jurnalining 33-jildi 387-444-sahifalarida Maxtumqulining sheʼrlarini nashr etdi.

Maxtumqulishunoslik tarixidagi Herman Vamberi maqolasi va Maxtumquli sheʼrlarini nemis tiliga tarjimasi yuzasidan aytilgan fikrlarning oʻzi bir dunyo. Ular ustida maxsus toʻxtalish va qiyosiy tahlillar yozish niyatida emasmiz.

Ammo ikki qismdan tarkib topgan “Turkman tili va Maxtumquli devoni” maqolasi H.Vamberining bilim darajasini, turkmanlarning toifalarini, yashash sharoiti, udumlari, geografik muhiti va, nihoyat, turkman tilini naqadar bilishini koʻrsatadi. Masalan, turkman tilining fonetikasi toʻgʻrisida shunday mulohazalar beradi: “Agar biz turkman tilining zamonaviy saljuqiy tili, yaʼni Usmonli turk tili bilan qarindoshligini taʼkidlaydigan boʻlsak, ularni bir-biridan ajratish

mumkin emas; janubiy va shimoliy qo'shnilar bilan qilingan ko'chmanchilik harakati orqali o'zbek va fors tillarining ta'sirini ham ko'rish mumkin. Mavjud analogiyalarga bir sidra nazar tashlash bilan bu faktlar o'z isbotini topadi.

Garchand sho'ro zamoni adabiyotshunoslari qaysidir ma'no-da Maxtumquli she'riyati oyat va hadislarga asoslanganini inkor qilsa ham bugun shoir ijodining negiziga to'g'ri baho berish davri yetildi. Davrning adabiyotshunoslarga bergan imkoniyati nuqtayi nazari-dan qaralganda Vamberi maqolasida yozilgan: "Haqiqatda mad-rasa tahsili Maxtumquli g'azallarida yaqqol namoyon bo'lmaydi", fikriga, shoirning madrasa tahsil ko'rmagan mazmunidagi gaplariga qo'shilib bo'lmaydi.

Maxtumquli she'rlariga munosabatini bildirayotgan Vamberining juda muhim e'tiroflaridan biri G'arb va Sharq odamining mentalitetiga tagishli. Vamberi yozadi: "Agar biz o'g'rilik va talon-chilik, razolat hukm surgan jamiyatda o'g'rilarga qarshi she'r o'qisak yoki biz yurtdoshlarimizni tamaki chekish zararidan ogohlantirib, ularga qo'rqinch hissini uyg'otadigan g'azal o'qisak, bu balki kulgili tuyulishi ham mumkin". Bunday qiyosiy tahlillar va haqqoniy e'tiroflarni faqatgina O'rta Osiyo xalqlari hayotini ko'rgan, ichkaridan chuqur anglagan va o'zlarining hayot tarzi bilan taqqoslagan olimgina yozishi mumkin edi.

"She'rlarida o'quvchilarga payg'ambar va avliyolarning qilgan ishlari va hijratlari, jannat va do'zax kabi mavzularga shoir o'z qarashlarini qo'shib bayon qildi". Vamberining bu kuzatishi ham juda o'rinli. Qolaversa, olim ta'kidlaganidek, sharqning musulmon odami ilohiyotga daxldor barcha tushunchalarni real haqiqat o'rnida qabul qiladi. Iymon shuni taqozo etadi.

Nazarimda, bugungi maxtumqulishunoslikda Vamberi maqolasi va uning tarjimalariga xolis qarash kerak bo'ladi. 57 sahifalik (387-444-betlar) adabiy-tarixiy manbaning aynan o'zini ko'rish, o'qish, tekshirish, tushunish, qiyoslash va tadqiq etish oqibatida Vamberi xizmatlari yuzaga chiqadi. Maxtumquli she'rlari orasida matniy tarafdin tafovutlar borligi ma'lum. "Devon"larining turli davrlarda, turli geografik hududlarda bosilgan har xil nusxalari bor. Turkiy xalqning har bir vakili o'z tili yoki lahjasiga moslagan qo'lyozmalari bo'lishi ham tabiiy. Vamberi qaysi xattot ko'chirgan va qaysi qo'lyozma nusxadan foydalangani aniq emas.

Xulosa

Umuman olganda, sho'ro davri maxtumqulishunosligida

H.Vamberi yozgan maqola va tarjimalariga biryozlama baho berish holati kuzatiladi. Holbuki, turkman tili va adabiyotini, xususan, Maxtumquli hayoti va ijodiga oid nisbatan keng ko'lamli adabiy manbani Yevropa ilmiy ommasiga taqdim etgan olim H.Vamberi bo'ladi. Maqoladagi turkman tili, turkiy tillar tabiatiga tegishli mulohazalar, arabiy matn tarjimasi jarayonida yozgan "hoshiya"dagi izohlar Vamberining bu sohada bilimdon ekanini ko'rsatadi. Kelgusida Maxtumquli she'rlarini nemis tiliga tarjima qilishga urinadigan mutaxassislar qaysidir darajada Vamberining ma'no tarjimalaridan foydalanishlari mumkin.

